

# Glossariy

## 5.4. Zamburug‘lar.

1. **Zamburug‘lar** — xlorofillsiz, tayyor organik moddalar bilan oziqlanuvchi tirik organizmlar guruhi.
2. **Mitselliy** — zamburug‘ tanasini tashkil etuvchi gifalar to‘plami.
3. **Gifa** — mitselliyni hosil qiluvchi ingichka ipchasimon hujayralar.
4. **Spora** — zamburug‘larning ko‘payish va tarqalish uchun xizmat qiluvchi hujayrasi.
5. **Saprotrof** — o‘lik organik qoldiqlar bilan oziqlanuvchi zamburug‘.
6. **Parazit zamburug‘** — tirik organizm hisobiga yashab, unga zarar yetkazuvchi zamburug‘.
7. **Simbioz** — ikki organizmning o‘zaro foydali yashash shakli.
8. **Xamirturush zamburug‘lari** — bir hujayrali, asosan achitish jarayonida ishtirok etuvchi zamburug‘lar.
9. **Mog‘or zamburug‘lari** — oziq-ovqat mahsulotlarida o‘sib, ularni buzuvchi zamburug‘lar.
10. **Meva tanasi** — zamburug‘larda sporalar hosil bo‘ladigan ko‘rinadigan qism.
11. **Lishaynik** — zamburug‘ va suv o‘ti (yoki sianobakteriya)ning simbioz birikmasi.
12. **Simbioz** — ikki xil organizmning o‘zaro foydali yashashi.
13. **Tallom** — lishaynik tanasi, ildiz, poya va barglarga ajralmagan tuzilma.
14. **Suv o‘ti (algalar)** — lishaynik tarkibidagi fotosintez qiluvchi qism.
15. **Zamburug‘ komponenti** — lishaynikda himoya va suvni ushlab turuvchi qism.
16. **Qobiqsimon lishaynik** — tosh va daraxt po‘stlog‘iga zich yopishib o‘sadigan lishaynik.

17. **Bargsimon lishaynik** — bargga oʻxshash shakldagi lishaynik turi.
18. **Butasimon lishaynik** — shox-shabbaga oʻxshash, tik oʻsuvchi lishaynik.
19. **Non mogʻori zamburugʻi (Rhizopus)** — oziq-ovqatlarda oʻsadi, saprofit zamburugʻ hisoblanadi.
20. **Xamirturush zamburugʻi (Saccharomyces)** — achitish jarayonida ishlatiladi, non va ichimliklar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.